

**Tojiyev Dostonjon Beknazar o‘g‘li**  
**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy**  
**nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti**  
**(94) 656-50-31, dostonjontojiyev26@gmail.com**  
**ORCID: 0009-0009-1614-802X**

---

## **TURKSOYNING TURKIY DUNYO RIVOJIDAGI O‘RNI VA HAMKORLIKDAO‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI MASALALARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiy davlatlar tashkilotning birlashuvi va o‘zaro hamkorlik aloqalari rivojida bosh ahamiyatga ega bo‘lgan Xalqaro Turkiy Madaniyat Tashkiloti – TURKSOYning tashkil topishi, rivoji, a‘zo hamda kuzatuvchi mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston bilan olib borayotgan hamkorlikka doir aloqalari, shu qatorda 2023-yilda bo‘lib o‘tgan 30 yillik yubileyining turkiy dunyoning bir bo‘lagi hisoblanmish O‘zbekistonda keng nishonlanishiga oid yuqori darajadagi e‘tibor va e‘tiroflar haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** TURKSOY, UNESCO, Sultan Rayev, Dyusen Kaseinov, Anqara shahri, Doimiy Kengash, Turkiy dunyoning “Madaniyat poytaxti”, “Turkiy madaniyat kunlari”, “Oltin medal” mukofoti, Prezident Shavkat Mirziyoyev.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы создания, развития, сотрудничества со странами-членами и странами-наблюдателями, в том числе с Узбекистаном, Международной тюркской культурной организации – ТЮРКСОЙ, что имеет важное значение в развитии объединения организации и взаимного сотрудничества между тюркскими государствами. Обсуждена информация о высоком уровне внимания и признании 30-летнего юбилея в 2023 году в Узбекистане, который считается частью тюркского мира.

**Ключевые слова:** ТЮРКСОЙ, ЮНЕСКО, Султан Раев, Дюсен Касеинов, город Анкара, Постоянный совет, «Культурная столица тюркского мира», «Дни тюркской культуры», вручение «Золотой медаль», Президент Шавкат Мирзиёев.

**Abstract:** In this article, the establishment, development, cooperation relations with member and observer countries, including Uzbekistan, of the International Turkish Cultural Organization – TURKSOY, which is of main importance in the development of the organization’s unification and mutual cooperation between the Turkic states, are discussed. Information about the high-level attention and recognition of the 30-year anniversary in 2023, in Uzbekistan, which is considered a part of the Turkic world, was given.

**Key words:** TURKSOY, UNESCO, Sultan Rayev, Dusen Kaseinov, Ankara city, Permanent Council, “Capital of Culture of the Turkic world”, “Days of Turkic culture”, “Gold Medal” award, President Shavkat Mirziyoev.

---

Xalqaro Turkiy Madaniyat Tashkiloti – TURKSOY turkiy dunyoning YUNESKOsi bo‘lib, 1993-yilda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Turkiya madaniyat vazirlari tomonidan imzolangan shartnomasi asosida tashkil etilgan.

TURKSOY – Turkiy davlatlar tashkilotini birlashtirishda bosh bo‘lib turgan hamda turkiy dunyoda tashkil etilgan ilk hamkorlik tuzilmasidir. TURKSOY turkiy til oilasiga tegishli tillarda

so‘zlashuvchi xalqlar, Turkiy respublikalar va jamiyatlarni birlashtiradigan xalqaro tashkilot hisoblanadi. “Turkiy madaniyat va san’atni rivojlantirish markazi” nomi ostida 1993-yilning 12-iyul kuni Qozog‘istonning o‘sha davrdagi poytaxti bo‘lgan Olmaota shahrida rasmiy imzolangan hujjat asosida o‘z faoliyatini boshlagan [1]. Tashkilotga tamal toshi Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya va Turkmaniston madaniyat vazirlari o‘rtasida 1992-yilda Boku hamda Istanbul shaharlarida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan tashkilot yaratish g‘oyalari asos bo‘ladi.

1996-yilda TURKSOY bilan UNESCO o‘rtasida ikki tomonlama muzokaralar va o‘zaro vakillikni ichiga olgan rasmiy hamkorlik masalasida kelishuv imzolandi [2].

Bir ildizdan, madaniyatdan, dindan kelib chiqqan va tarixan bog‘liq bo‘lgan turkiy davlatlarning o‘zaro hamkorligini zamon talabi, deyish o‘rinlidir. Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston a‘zo sifatida, Vengriya, Turkmaniston va Shimoliy Kipr esa kuzatuvchi davlatlar bo‘lgan holatda tashkilotning ravnaqiga, taraqqiyotiga xizmat qilishga bel bog‘lashgan.

TURKSOYning asosiy maqsadi – turkiy davlatlar va xalqlar orasidagi do‘stlikni mustahkamlash va o‘zaro hamkorlikni har tomonlama kuchaytirishdir. Bu hamkorliklar madaniy, ilmiy, iqtisodiy va boshqa qator sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bugungi kunda tashkilotining bosh kotibi jurnalist va yozuvchi Sultan Rayev bo‘lib, u 2022-yilning mayida bu lavozimga kirishgan. Yordamchisi Sayit Suyuf hisoblanadi. Rayev rahbarlikka qadar o‘zidan oldingi tashkilotning bosh kotibi Dyusen Kaseinovning o‘rinbosari bo‘lib ishlagan edi. Jumladan, Dyusen Kaseinov 2008 - 2022-yillarda TURKSOYning bosh kitobi sifatida faoliyat olib borgan bo‘lsa, Polad Bulbulog‘lu Birinchi kotib sifatida 1993 - 2008-yillarda ishlagan [3]. Dyusen Kaseinovning davrida ikki Bosh kotib yordamchilari ishlagan bo‘lib, professor Firat Purtash 2008 - 2019-yillarda, professor Bilal Chakiji esa 2019 - 2023-yillarda bu lavozimda bo‘lgan [4]. Bilal Chakiji bir yil davomida Sultan Rayevga ham yordamchi lavozimida ishlagan, hamda ikkita Bosh kotib davrida ishlagan yagona (hozircha) yordamchi kotibdir.

Tashkilotda a‘zo mamlakatlar Madaniyat vazirliklari tomonidan tayinlangan vakillar ham faoliyat yuritadi. TURKSOYning markaziy xizmat binosi Turkiya boshkenti Anqarada joylashgan. Shu bilan bir qatorda, TURKSOYning boshqa birorta davlat yoki shaharda vakolatxonasi mavjud emas. TURKSOY 2009-yil bugungi nomini oldi va Turkiy respublikalarning yangilangan birlashuv tashkiloti – Turkiy Kengashga rasman integratsiya qildi.

TDTning rasmiy a‘zolari bo‘lgan Markaziy Osiyo Respublikalari, Turkiya va Ozarbayjondan [5] tashqari TURKSOYga Shimoliy Kipr Turk Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi Tatariston, Boshqirdiston, Oltoy, Yakut (Saxa), Tuva va Xakas Respublikasi hamda Moldovaning Gagauziyasi [6] kuzatuvchi maqomida a‘zo bo‘lganlar [7]. Biroq 2015-yildagi Turkiya-Rossiyasining diplomatik munosabatlari sovuqlashishi ortidan Saxa va Tuva jumhuriyatlari TURKSOYni tark etishgan [8].

TURKSOY faoliyati TDTga a‘zo mamlakatlarning madaniyat vazirlaridan iborat Doimiy Kengash tomonidan belgilab boriladi. Doimiy Kengash majlislarida qabul qilingan qarorlar bevosita TURKSOY Bosh kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi [9].

TURKSOYga a‘zo mamlakatlarda o‘tkazilgan Doimiy Kengash yig‘ilishlarida Turkiy dunyo madaniyat va san’at hayotiga doir bo‘lgan qarorlar qabul qilinadi. Bu yig‘ilishlarda TURKSOYning faoliyat dasturini belgilash, tegishli yil uchun Turkiy dunyoning “Madaniy poytaxti”ni aniqlash, TURKSOYning kelgusi yilda faoliyati kengroq targ‘ib etiladigan shaxs yoki shaxslarni aniqlash kabi qarorlari qabul qilinadi. Doimiy Kengash majlislarida qabul

qilingan qarorlar TURKSOY Bosh Kotibiyati tomonidan belgilangan muddat davomida amalga oshirib boriladi.

Shu doirada bugungi kunga qadar Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya, Tatariston (RF) va Boshqirdistonda (RF) 38 ta yig‘ilish o‘tkazilgan va aynan 38-yig‘ilish O‘zbekistonda tashkil qilingan edi [10]. Yilda bir marta Turkiy dunyoning “Madaniyat poytaxti” aynan shunday yig‘ilishlarda aniqlanadi. TURKSOY Muddatli Koordinator maxsus hujjatni Turk dunyosi “Madaniyat poytaxti” sifatida tanlangan shahar tegishli bo‘lgan davlatning tegishli vazirligiga topshiradi. TURKSOY Doimiy Kengashi yig‘ilishlari Turkiy dunyo Madaniyat va boshqa tegishli vazirlarini birlashtirgan hamkorlikning eng qadimgi an‘analaridan biridir.

TURKSOYning an‘anaviy tadbirlari qatorida Navro‘z bayramlari, rassomlar, fotograflar, haykaltaroshlar uchrashuvlari va opera kunlari ham bor. Qolaversa, TURKSOY har yili Turkiy dunyodan bir shaharni Turkiy dunyo madaniyat poytaxti deya e‘lon qiladi va o‘sha yilgi faoliyatini xotirlash yillari nomi bilan muhim shaxslar hayotiga bag‘ishlaydi.

2023-yilda Turkiy dunyoda, jumladan, Toshkentda TURKSOY yubileyiga bag‘ishlangan tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Poytaxtda joylashgan “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning 30 yillik yubileyiga bag‘ishlangan katta tantanali tadbir va ajoyib chiqishlardan iborat konsert dasturi bo‘lib o‘tdi [11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning TURKSOY tashkiloti 30 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan madaniyat kunlari ishtirokchilariga atalgan tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi [12].

Tadbir tashkilotchisi va mezbon – O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi bo‘lsa, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev tadbirni rasmiy ochib beruvchisi bo‘ldi. Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning bosh kotibi Sulton Rayev ham bundan 30 yil avval tashkil etilgan madaniyat tashkilotining shu qisqa davr oralig‘ida jahonda o‘z nufuzi va obro‘sigacha ega bo‘lishga ulgurgani, uning hamkorlik yordamida taraqqiyot sari intilishdek ezgu g‘oyasi dunyoda tobora dolzarblik kasb etayotganini ta‘kidlab o‘tdi.

O‘zbekistonning keyingi yillarda tashqi siyosatda olib borayotgan ochiq va konstruktiv, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan o‘ziga xos yangilanish jarayonlari qo‘shni hamda qardosh davlatlar bilan samimiy, do‘stona, birodarlik, yaxshi qo‘shnichilikka, samimiy ishonch va ardoqli hurmatga asoslangan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishida eng muhim asoslardan biri bo‘lmoqda. Bu jihatlar turkiy tilli mamlakatlarning o‘zaro hamkorligini yuqori darajadagi yangi bosqichga olib chiqish imkonini bergani bilan ahamiyatlidir. Ushbu sana bu yil davomida tashkilotga a‘zo mamlakatlarda keng tantana qilindi. Olmaotadan boshlangan bayram Bishkekda davom etib, undan Toshkentga ham yetib keldi.

Ushbu yubiley yil munosabati bilan 2023-yilning 19 - 26-iyun kunlarida Toshkentdagi Xalqaro anjumanlar saroyida TURKSOYning 30 yilligiga bag‘ishlangan “Turkiy madaniyat kunlari” bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda “TURKSOY fotoko‘rgazmasi”, “Turkiy dunyo rasmlari ko‘rgazmasi”, “Turkiy dunyo ustalarining amaliy san‘ati ko‘rgazmasi”, “Turkiylar nashrlari ko‘rgazmasi”, “Turkiy dunyo milliy liboslari ko‘rgazmasi” kabi turkiy dunyo madaniyati aks etgan bir qator ko‘rgazmalar ham tashkil etildi [13].

Umumiy konsertdan tashqari Poytaxt shahardagi O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida TURKSOY tashkilotining 30 yillik yubileyiga bag‘ishlangan “Turk dunyosi” nomli rassomlar va hunarmandlar ko‘rgazmasi [14], turkiy dunyo xalqlarining milliy oshxonalariga oid gastronomik turlar namoyish tashkil etildi [15]. Ushbu yubiley tadbirlari davomida turkiy tilli davlatlarning nufuzli xalqaro tashkilotlari rahbarlari va O‘zbekiston Respublikasining Madaniyat vazirligi o‘rtasida madaniyat, san‘at, noshirlik, media, turizm kabi qator sohalarda hamkorlikni kengaytirishga oid muloqot va uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi, muhim kelishuvlar hamda hamkorlikning yangi darajadagi memorandumlari imzolandi.

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning 30 yillik yubiley tantanalari munosabati bilan turkiy davlatlar orasida madaniyat va san‘atni keng targ‘iboti, mukammal ijrochi va professional mahorati bilan, turkiy davlatlarda obro‘ va etibor qozongan taniqli madaniyat va san‘at xodimlari uchun ta‘sis etilgan “Oltin medal” mukofoti bilan O‘zbekiston madaniyat va turizm vaziri Ozodbek Nazarbekov, “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nuridinov, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Said, O‘zbek milliy akademik drama teatri direktori Yodgor Sa‘diyev va O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonovalar taqdirlandilar. Mukofotni TURKSOY Bosh kotibi Sultan Rayev topshirdi. “Oltin medal” mukofoti bilan taqdirlanganlar qatorida marhum davlat va jamoat arbobi, professor Baxtiyor Sayfullayev va O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev ham bor [16]. Shuningdek, tashkilotning “30 yillik” ko‘krak nishoni bilan bir guruh madaniyat va san‘at xodimlari ham Bosh kotib tomonidan taqdirlandilar.

TURKSOY sabab madaniyat sohasidagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqdi. O‘zaro hamjihatlikda o‘zaklari bir nuqtaga tutashuvchi qadim turkiy madaniyatni rivojlantirish yo‘lida qator loyihalar amalga oshirib borilmoqda va munosabatlar ham shunga mos tarzda tobora mustahkamlanmoqda.

Umumiy til va mushtarak qadriyatlar birligi asosida shakllangan Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY doirasida bugungi kunda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Ta‘kidlash joizki, turkiy tilli xalqlarning ma‘naviy qadriyatlari va tarixiy-madaniy merosini xalqaro darajada saqlash, o‘rganish va ommalashtirishda TURKSOY tashkiloti muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda ushbu tuzilma tili, madaniyati, an‘analari, tarixi, hayot tarzi mushtarak xalqlar uchun o‘ziga xos mustahkam va ishonchli ma‘naviy ko‘prikka aylanib ulgurd.

TURKSOYning yubileyi bilan bir vaqtda Beruniy tavalludining 1050 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligi, G‘ofur G‘ulom tavalludining 120 yilligini turkiy dunyo miqyosida yuqori saviyada o‘tkazish masalalari ham aynan 2023-yilgi dasturlarning muhim tadbirlaridan biri bo‘ldi [17].

Mazkur nufuzli tuzilma bosh kotibi Sul-ton Rayevning ta‘kidlashicha, keyingi yillarda TURKSOY faoliyati tobora ravnaq topib borayotir. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga oid hayotiy tashabbus va g‘oyalari, mazkur tashkilotning faol qo‘llab-quvvatlanayotgani o‘ziga xos ahamiyat kasb etayotgani diqqatga sazovordir [18]. Bu kunlar ajdodlar, ota-bobolar, jadidlar orziqib kutgan muhtasham kunlardir. TURKSOY turkiy xalqlarning oltin ko‘prigiga aylandi va bu oltin ko‘prik asrlar davomida xalqlar o‘rtasida mustahkam bog‘lamni tashkil etishiga shubha yo‘q, umid kuchlidir.

Tezlikda globallashib borayotgan dunyoda turli xatar va tahdidlarning oldini olishda, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va ahillikni, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlikni tobora mustahkamlashda faoliyatining asosini ezgulik, ma‘rifat, ma‘naviy boylikka yo‘g‘rilganlik, hamkorlik kabi olijanob g‘oyalar tashkil etuvchi TURKSOY tuzilmasining o‘rni va ahamiyati o‘ziga xos tarzda salmoqlidir. Uning platformasida o‘tkazilayotgan ijodiy loyihalar, festivallar, ijodiy tanlovlar,

forumlar, yirik anjumanlar ildizlari umumbashariy ezgu g'oyalardan suv ichgan xalqlarni yagona maqsad sari birlashtirib kelayotir. Olmaota, Anqara, Bishkek, Toshkent, Boku kabi markaziy shaharlarda bo'lib o'tayotgan tadbirlar shu jihatlarni yana bir karra o'zining yorqin ifodasi sifatida namoyon ettirmoqda.

Jahon mamlakatlarida siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy jabhalarda integratsiya va globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda dunyo mamlakatlarining asosiy rivojlanish tendensiya hamda yo'nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon siyosati va iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning rivojlanish alomatlari o'zgarib borayotgan bir davrda TDTning jahon hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashib, qator mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi munosabatlari tobora kengaytirib borish harakatini jadallashdi.

Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolarining o'zaro hamkorlik aloqalari ham yuqori bosqichli rivojlanishga o'tdi. Ushbu tashkilotning barcha a'zo davlatlari o'zaro qardosh xalqlar sifatida azaliy do'stlik aloqalarini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish strategiyalari mintaq va jahonda tinchlik, barqarorlik hamda hamkorlikni ta'minlash yo'lida muhim ahamiyat kasb etishini dunyo afkor ommasiga namoyon etib kelmoqdalar.

TURKSOY tashkil topgan kundan buyon turkiy xalqlar o'rtasidagi qardoshlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash, mushtarak turkiy madaniyatni kelajak avlodlarga yetkazish va dunyoga tanitish maqsadida faoliyat olib bormoqda.

Turk dunyosi va jahon miqyosida madaniy va san'at olami o'rtasida uzluksiz va doimiy hamkorlikni ta'minlovchi TURKSOY ishi tashkil etilganidan buyon a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining homiyligida amalga oshirilib kelinmoqda. ularning minnatdorligi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Uluslararası Türk Kültürü Teşkilatı hakkında [https://tr.wikipedia.org/wiki/Uluslararası\\_Türk\\_Kültürü\\_Teşkilatı](https://tr.wikipedia.org/wiki/Uluslararası_Türk_Kültürü_Teşkilatı)
2. Relations with the joint administration of the Turkic culture and arts (TÜRKSÖY), and draft agreement between that organization and UNESCO. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000103511>
3. <https://www.turksoy.org/eski-genel-sekreterler>
4. <https://www.turksoy.org/eski-genel-sekreter-yardimcilari>
5. <https://www.turksoy.org/uye-ulkeler/uyeler>
6. <https://www.turksoy.org/uye-ulkeler/gozlemciler>
7. Xalqaro Turkiy Madaniyat Tashkiloti a'zo mamlakatlar [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_Turkiy\\_Madaniyat\\_Tashkiloti\\_a'zo\\_mamlakatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_Turkiy_Madaniyat_Tashkiloti_a'zo_mamlakatlari)
8. Xalqaro Turkiy Madaniyat Tashkiloti sobiq a'zolar [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_Turkiy\\_Madaniyat\\_Tashkiloti\\_sobiq\\_a'zolar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_Turkiy_Madaniyat_Tashkiloti_sobiq_a'zolar)
9. <https://www.turksoy.org/tarihce>
10. TURKSÖY Madaniyat vazirlarining doimiy Kengashi 38-yig'ilishi O'zbekistonda tashkil etildi. 18.09.2021. <https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avryasyadan/turksoy-madaniyat-vazirlarining-doimiy-kengashi-38-yig'ilishi-ozbekistonda-tas/6144745c01a30a546c309bba>
11. Toshkentda TURKSÖYning 30 yillik yubileyiga bag'ishlangan konsert dasturi bo'lib o'tdi. 20.06.2023. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2023/06/16/01234567890-925-2000592>
12. Turkiy xalqlarning oltin ko'prigi. 19.06.2023. [https://uza.uz/oz/posts/turkiy-xalqlarning-oltin-koprigi\\_494524](https://uza.uz/oz/posts/turkiy-xalqlarning-oltin-koprigi_494524)

13. Toshkentda TURKSOYning 30 yilligiga bag'ishlangan "Turk madaniyati kunlari" bo'lib o'tadi. 26.02.2023. <https://uzreport.news/society/toshkentda-turksoyning-30-yilligiga-bag-ishlangan-turk-madaniyati-kunlari-bo-lib-o-tadi>
14. TURKSOYNING 30 YILLIK YUBILEYIGA BAG'ISHLANGAN KO'RGAZMA. 10.06.2023. [HTTPS://GOV.UZ/LISTS/VIEW/1932/](https://gov.uz/lists/view/1932/)
15. Turkiy xalqlarning oltin ko'prigi. 19.06.2023. [https://uza.uz/oz/posts/turkiy-xalqlarning-oltin-koprigi\\_494524](https://uza.uz/oz/posts/turkiy-xalqlarning-oltin-koprigi_494524)
16. TURKSOYning 30 yillik yubileyi tantanalari o'tkazildi. 20.06.2023. <https://baxshimarkaz.uz/news/view/566>
17. TURKSOYning 30 yilligi: Toshkentda turkiy davlatlar san'atkorlari konsert beradi. 10.06.2023. <https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/turksoyning-30-yilligi-toshkentda-turkiy-davlatlar>
18. Toshkentda TURKSOYning 30 yillik yubileyiga bag'ishlangan konsert dasturi bo'lib o'tdi. 20.06.2023. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2023/06/16/01234567890-925-2000592>